

# Atrof Muhitni Muhofaza Qilishdagi Muammolarni Tahlili

*Jumaqulova Zulayho<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Atrof muhitni muhofazalashda qilinishi kerak bo'lgan yoki bajarilgan ko'rsatkichlarni tahlil qilinganligi to'g'risida yozilgan.

**Kalit so'zlar:** maxalliy chiqindilar, atrof muhit, Qoradaryo, ekologiya, atmosfera, biosfera.

## Kirish

Atrof muhitni muhofaza qilish butun yer yuzi aholisi oldida turgan eng katta muammolardan biri hisoblanadi. Fan texnikaning rivojlanishi jamiyatga misli ko'rilmagan yutuqlar keltirish bilan bir qatorda jamiyat bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashishiga, ekologik holatning yomonlashishiga, tabiiy resurslarning isrof bo'lishiga, suv, havo, tuproqning ifloslanishiga, zaharlanishiga, o'simlik va hayvonlarning kamayib ketishiga va boshqa salbiy oqibatlariga olib keldi.

Shu sababli toza muhitda hozirgi va kelajak avlodlar sog'ligini ta'minlash, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish bilan bir qatorda chiqindisiz texnologiyalarni ishlab chiqish, sun'iy ekosistemalar (qishloq xo'jaligi)ning doimiy va yuqori hosildorligini ta'minlash, aholining turli tabaqalariga, jumladan barcha rahbarlar va mutaxassislarga atrof-muhit muhofazasi muammolarini va uning yechimi to'g'risidagi tushunchalarni izchil tushuntirish orqali tabiat muhofazasini amalga oshirish talab qilinadi.

## Asosiy

Insonning fan-texnika sohasidagi yutuqlari natijasida elektr energiya, poyezdlar, mashinalar, samolyot, kemalar, raketa, sun'iy yo'ldoshlar, telefon, zavod fabrikalar yaratildi.

Bularning hammasi Yer bag'ridan tortib olingan tabiiy boyliklar hisobiga bo'ldi. Lekin, ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'lgan milliard-milliard chiqindilar:

- Foydali yer maydonini kamaytirmoqda
- Tuproq, o'simlik qoplami va hayvonlar nobud qilinmoqda;
- Chiqindilar bilan, havo, suv, tuproq ifloslanmoqda;
- Yer osti suvlarining darajasi va tarkibi buzilmoqda;
- Eroziya jarayoni kuchaymoqda;
- Foydali o'simliklar o'rnini begona, foydasiz o'tlar bosib ketmoqda;
- Tabiiy boyliklar kamayib, uning go'zalligi, estetik ko'rinishi pasaymoqda;
- Insonlar o'rtasida turli-tuman kasalliklar, genetik cheklanish yuzaga kelib, ular ichida o'lim, ochlik kuchaymoqda;
- Korxonalarda ishlab chiqarish darajasi pasaymoqda;

Respublikamizda atrof muhitni muhofaza qilish davlat siyosati darajasidagi ish bo'lib, unga alohida e'tibor berilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida" asarida "Ekologik xavfsizlik muammosi allaqachonlar milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumiy muammosiga aylangan. Tabiat va inson o'zaro muayyan

<sup>1</sup> Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti assistenti



qonuniyatlarni buzish o'nglab bo'lmas ekologik falokatlariga olib keladi. Bu xavfni ancha kech, 70-yillarning boshlaridagina anglay boshladik..." deb yozgan edi.

I. A. Karimovning "... Bunday sharoitda inson tomonidan biosferaga ko'rsatilayotgan ta'sirni tartibga solish, ijtimoiy taraqqiyot bilan qulay tabiiy muhitni saqlab qolishning o'zaro ta'sirini uyg'unlashtirish, inson va tabiatning o'zaro munosabatlarida muvozanatga erishish muammolari borgan sari dolzarb bo'lib bormoqda..." degan fikrlari naqadar to'g'ri ekanligini hozirgi kunda jahon yaxshi biladi.

Mamlakatimizda yerning tozaligini, hosildorligini saqlash, suv zahiralarning ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik, orol muammosini hal qilish havo bo'shlig'ining ifloslanishiga qarshi kurashish eng muhim vazifalar bo'lib qolmoqda.

Mutaxassislarning ma'lumotlariga qaraganda, har yili respublikaning atmosfera havosiga 4000000 tonnaga yaqin zararli moddalar qo'shilmogda. Shularning yarmi uglerod oksidiga to'g'ri keladi. 15 foizini uglevodorod chiqindilari, 14 foizni oltingugurt qo'sh oksidi, 9 foizini azot oksidi, 8 foizini qattiq moddalar tashqil etadi va 4 foizga yaqini o'ziga xos o'tkir zaharli moddalarga to'g'ri keladi.

Tabiat o'ziga xos murakkab tizim bo'lib, inson va jamiyat uning hosilasidir. Inson tabiatdan havo, suv, oziq-ovqat, mineral, yonilg'i xom ashyolarini oladi va o'z ehtiyojlarini qondiradi hamda hayot faoliyati davomida unga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Natijada tabiat uchun yot bo'lgan yangi obyektlar vujudga keladi. Bular: shahar va qishloqlar, zavodlar, fabrikalar, yo'llar, konlar, suv omborlari, qishloq xo'jalik yerlari va boshqalardir. Inson aql-idroki va mexnati tufayli yuzaga kelgan bunday antropogen landshaftlar atrof-muhitga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Yer yuzida aholi sonining keskin o'sib borishi, fan-texnikaning shiddatli taraqqiyoti, mamlakatlar hududida tabiiy resurslarning bir tekis tarqalmaganligi mavjud tabiiy resurslardan imkon qadar ko'proq foydalanish va shu yo'l bilan jamiyat taraqqiyotini tezlatishni taqozo qiladi. Natijada tabiat va inson o'rtasidagi o'zaro munosabat qonunlari buziladi. Bu qonunlarning buzilishi esa ertami-kechmi ekologik inqirozga olib keladi.

## Xulosa

Hozirgi kunga kelib, butun dunyodagi ekologik holat ko'pchilikni birdek bezovta qilmoqda. Ekologik halokat ko'z o'ngimizda dahshatli tus olmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish va mavjud tabiiy resurslardan samarali foydalanish masalalari dolzarbligicha qolmoqda.

Hozirgi kunda tabiatdan olinayotgan turli xom ashyolarning o'rtacha har 100 birligidan faqat 3-4 tasidan foydalaniladi, holos. Nooqilona foydalanish tufayli keyingi 1,5 ming yil ichida yer yuzasidagi o'rmonzorlar 47% dan 27%ga tushib qoldi, quruqlikning 30%i cho'l va sahrolarga aylandi. Saxro-cho'llar yiliga 6 mln gektar tezlik bilan kengaymoqda. Yiliga tabiatga chiqarib tashlanayotgan turli chiqindilar miqdori 100 mlrd tonnadan ko'pni tashqil etmoqda. So'nggi 100 yil ichida 2 mlrd gektar ekin maydonlari eroziyaga uchrab ishdan chiqdi.

Tabiatdagi salbiy o'zgarishlar majmui birinchi galda insonlar salomatligiga katta ziyon yetkazmoqda. Aholining umumiy kasallanish darajasi to'xtovsiz o'sib bormoqda, nafas yo'llari, oshqozon-ichak, onkologik, allergik, yurak, qon-tomir va asab kasalliklari ko'payib, yangi noma'lum kasalliklar paydo bo'lmoqda.

Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda, atmosferaga dunyo bo'yicha 50 million tonna har xil uglevodorodlar, 260 million tonna oltingugurt oksidlari, 50-60 million tonna azot oksidlari, 2 million tonnadan ortiqroq chang va kulsimon moddalar tashlanmoqda.

Xorijiy mamlakatlar atmosferasini ifloslantiruvchi gazlar ichida is gazi, uglevodorodlar va azot oksidlari barcha tajovuzkor gazlarning 60-70% ini tashqil qilsa, respublikamizda bu ko'rsatkich 35 foizni, ayrim shaharlarda (Andijon, Buxoro, Samarkand, Toshkent) esa 80 foizni tashqil qiladi. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi hududlarida avtotransport vositalari tomonidan 1988 yilning o'zida 35,8 million tonna zararli tashlamalar havoga chiqarib tashlangan. Moskva, Sankt-Peterburg, Toshkent, Yerevan va boshqa shaharlar havosida is gazi ruxsat etilgan me'yordan 3-10 marta ziyod ekanligi qayd etilgan. Bu borada kundan-kunga ko'payib borayotgan havo laynerlari ham o'z xissasini



qo'shmoqdalar. Jumladan, «Boing-707» tipidagi bitta havo laynyeri 6850 ta avtomobildan chiqadigan zaharli gazlarni atmosferaga tashlaydi. Bunday va bunga o'xshagan havo laynyerlaridan necha minglab uchib yurganligi hisobga olinsa, ularni havo muhitiga yetkazayotgan zararini tasavvur qilish qiyin emas. Hozirgi vaqtda biosfera turli tashqi kuchlar ta'siri ostida yildan-yilga o'zgarib bormoqda.

Bunday o'zgarishlar daryo va suv xavzalariga ham tasiri bor. Jumladan Qoradaryo misolida olsak Qoradaryo — Andijon viloyatidagi daryo (boshlanish qismi Qirg'izistonda). Sirdaryoning asosiy irmoklaridan biri. Uz. (Tar daryosi bilan birga) 318 km, havzasining maydoni 28,6 ming km<sup>2</sup>. Farg'ona tizmasining jan.-sharqiy va Olay tizmasining shim. yon bag'irlaridan boshlanadigan Tar va qorag'ulja daryolarining qo'shilishidan hosil bo'ladi. Kampirravot darasigacha kengligi 0,5 km dan 4–5 km gacha bo'lgan terrasali vodiya oqadi. Daryoga ikkita yirik irmoq — Yassi va Qur-shob daryolari kelib qo'shiladi. Kampir-ravot qishlog'i yaqinida vodiya keskin torayib dara hosil qiladi. So'ng Qoradaryo Farg'ona vodiysida oqadi. Baliqchi qishlog'i yaqinida Norin daryosi bilan qo'shib, Sirdaryoni hosil qiladi. Daryoning o'rtacha yillik suv sarfi Uchtepa yaqinida 136 m<sup>3</sup>/sek. Shu joyda yillik eng ko'p suv sarfi 265 m<sup>3</sup>/sek ga yetgan (1969-yil), eng kam suv sarfi 68,4 m<sup>3</sup>/sek (1975-yil). Daryo qor va muzlik suvlaridan to'yinadi. Yillik oqimining 55% mart — iyul oylariga to'g'ri keladi. Daryo suvining o'rtacha loyqaligi 1 kg/m<sup>3</sup>. Ba'zan qishda qisqa muddat qirg'oqqa yaqin qismi muzlab muz va shovush oqishi kuzatiladi. Farg'ona vodiysiga chiqqanidan so'ng daryo suvi ko'plab sug'orishga sarflanadi. Katta Farg'ona kanali, Shahrixonsoy, Andijonsoy va Paxtaobod kanallari Qoradaryodan suv oladi. Daryo suvidan Andijon viloyati va Qirg'izistonning O'sh viloyati ekin maydonlari sug'oriladi.

### Adabiyotlar

1. Салимов З. Кимёвий технологиянинг асосий жараёнлари ва курилмалари I ва II томлар. Тошкент: Ўзбекистон, 1994.
2. Родионов А.И. Техника заўитқ окружаюёей средқ. М.: Химия, 1989.
3. Балабеков О.С., Балтабаев Л.Ш. Очистка газов в химической промқшленности. М.:Химия, 1991
4. Алиматов Б.А., Орипов Э.О. “Атроф-мухитни мухофазаловчи техника” фанидан маърузалар матни. Фаргона: ФарПИ, 2011
5. Asqarov, X. A., Asqarova, M. B. Q., & Axmadaliyev, USO (2021). Bino va inshootlarni qurishda g'ishtlarning tahlili. *Ilmiy taraqqiyot*, 1 (6), 1112-1116.
6. Asqarov, X. A., Egamberdiyeva, S. A., Maxmudov, S. M. (2022 yil, noyabr). “LEGO” G 'ISHT ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASI. 21-asrda innovatsion ta'limning o'rni va ahamiyatiga bag'ishlangan xalqaro konferensiyada ( 1-jild, №7, 102-106-betlar).
7. Asqarov, X. va Mamajonov, M. (2023). Inshoot va binolarga zilzila ta'siri yuklar tahlili. *Oltin miya*, 1 (6), 12-14.
8. Askarov, X. (2023). SILIKAT MATERIALLARDAN TAYORLANGAN G 'ISHTLARDAN BINO INSHOOTLARINI QURISH TAHLILI. *GOLDEN BRAIN*, 1(8), 162-164.
9. Askarov, X., & Qodirova, G. (2023). ALABASTR VA GIPS QURILISHDA QO 'LLASH XUSUSIYATLARI TAHLILI. *GOLDEN BRAIN*, 1(5), 55-58.
10. Mirzayev, B. O., & Askarov, X. (2023). METHODS FOR CALCULATING BRICK CONSUMPTION WHEN BUILDING WALLS FROM SILICATE AND CERAMIC BRICKS. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(08), 1-14.
11. Asqarov, X., & Zokirjonov, A. (2023). MAHALLIY CHIQRINDI TOSHLARDAN LEGO G'ISHT ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASINI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3 (10), 40-43..
12. Raximov, R. A., Asqarov, X., & Zokirjonov, A. (2023). MAHALLIY CHIQRINDI TOSHLARDAN PRESS USULIDA KONSTRUKTIV MUSTAXKAMLIKKA EGA BO'LGAN



G'ISHT ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASI. *ARXITEKTURA, MUHANDISLIK VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR JURNALI*, 2 (9), 11-15.

13. Asqarov, X. A., Egamberdiyeva, S. A., Maxmudov, S. M. (2022 yil, noyabr). “LEGO” G'ISHT ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASI. *21-asrda innovatsion ta'limning o'rni va ahamiyatiga bag'ishlangan xalqaro konferensiyada* ( 1-jild, №7, 102-106-betlar).
14. Asqarov, X. va Qodirova, G. (2023). ALABASTR VA GIPS QURILISHDA QO'LLASH XUSUSIYATLARI TAHLILI. *OLTIN MIYA*, 1 (5), 55-58.
15. Askarov, X. A., & Maxmudov, S. M. (2022, November). QURILISH SANOATIDA KERAMZIT BETON TO 'SQICHLAR TAYYORLASH INNOVATSION TEXNOLOGIYASI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 10, pp. 99-102).
16. X, F., Sh, R., Tashtanova, M., Yalgashev, O., & Adkhamova, G. (2019). Fosfogipsning qurilish xususiyatlari, to'g'onlarni o'rab turgan loy qoldiqlari uchun material sifatida. *Fan, muhandislik va texnologiya sohasida ilg'or tadqiqotlar xalqaro jurnali*, 6 (7), 10270-10277.
17. Tojiboyev, B. T., & qizi Askarova, M. B. (2023). ARCHITECTURE AND LANDSCAPE OF FERGANA CITY. *GOLDEN BRAIN*, 1(13), 403-408.
18. Tojimatovich, K. I., Abdukahorovich, A. H., & Behruz, K. (2024). VINEGAR ACID REGENERATION MAKING COLUMN APPARATUS PLATES MODERNIZATION. *American Journal of Technology and Applied Sciences*, 21, 53-55.
19. Abduqaxorovich, A. X., Tojimatovich, K. I., & Islomiddin, I. (2024). CONSTRUCTIVE ANALYSIS OF PLATE COLUMNS. *American Journal of Technology and Applied Sciences*, 21, 49-52.

